

D.M.ANVAROVA, P.S.ERGASHEV

KASBGA YO'NALTIRISH VA KASB TANLASH ASOSLARI



TOSHKENT

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI
BUXORO MUHANDISLIK-TEXNOLOGIYA INSTITUTI**

D.M.ANVAROVA, P.S.ERGASHEV

KASBGA YO‘NALTIRISH VA KASB TANLASH ASOSLARI

*5110900 – pedagogika va psixologiya ta‘lim yo‘nalishi
talabalari uchun o‘quv qo‘llanma sifatida tavsiya etiladi*

TOSHKENT – 2016

UO‘K: 331.54 (075.8):159.9

KBK 74.200.52 (50‘)

A-63

A-63 D.M.Anvarova, P.S.Ergashev. Kasbga yo‘naltirish va kasb tanlash asoslari. –T.: «Fan va texnologiya», 2016, 128 bet.

ISBN 978–9943–4649–2–6

Mazkur o‘quv qo‘llanma “Kasbga yo‘naltirish va kasb tanlash asoslari” fani bo‘yicha talabalarga nazariy va amaliy mashg‘ulotlarga tayyorlanishda yordamchi manba sifatida xizmat qiladi. Qo‘llanma kasb psixologiyasi, yoshlarni kasbga yo‘naltirish, kasbiy qiziqishlar diagnostikasi kabi muammolar bo‘yicha fanda shakllangan an‘anaviy qarashlar hamda bu sohadagi eng yangi tadqiqotlarning natijalari bilan tanishtiradi. O‘quv qo‘llanma pedagogika oliy o‘quv yurtlarining “Pedagogika va psixologiya” ixtisosligi (5110900) bo‘yicha tahsil oluvchi talabalarga mo‘ljallangan. Shu bilan birga undan kasb psixologiyasi muammolari bilan qiziquvchi turdosh soha mutaxassislari, ta’lim muassasalari uchun amaliyotchi psixologlar tayyorlash kurslarining tinglovchilari foydalanishi mumkin.

Данное учебное пособие служит для подготовки студентов к теоретическим и практическим занятиям по предмету “Профориентация и основы выбора профессии”. Пособие знакомит с традиционными взглядами и новейшими научными достижениями в области психологии профессии, профориентации молодежи, диагностики профессиональных склонностей. Учебное пособие предназначено для студентов высших педагогических учебных заведений, обучающихся по специальности “Педагогика и психология” (5110900). Также пособием могут воспользоваться специалисты смежных областей, интересующиеся проблемами психологии профессии и слушатели курсов по подготовке практических психологов для системы образования.

This textbook for preparation of students for theoretical and practical employment in a subject “Vocational guidance and bases of choice of the profession”. The textbook acquaints with traditional sights and the newest scientific achievements in the field of psychology of a trade, vocational guidance of youth, diagnostics of professional propensities. The textbook is intended for students of the Higher pedagogical institutions trained on the speciality “Pedagogics and psychology” (5110900). Also the textbook can be used by experts of the adjacent areas, were interested on problems of psychology of a trade and listeners of curriculum on preparation of practical psychologists for an education system.

UO‘K: 331.54 (075.8):159.9

KBK 74.200.52 (50‘)

Taqrizchilar:

Sh.R.Barotov – psixologiya fanlari doktori, professor;

A.X.Gaffarov – pedagogika fanlari nomzodi, dotsent.

ISBN 978–9943–4649–2–6

© «Fan va texnologiya» nashriyoti, 2016.

KIRISH

Inson o'z hayotida qabul qiladigan eng murakkab va mas'uliyatli vazifalardan biri kasb tanlash bilan bog'liq qarordir. Ushbu qarorni qabul qilishning murakkabligi unga ta'sir ko'rsatuvchi omillar haddan tashqari ko'pligi bilan ham izohlanadi. Kasb tanlashga ta'sir ko'rsatuvchi omillar masalasiga davlatimiz rahbari I.A.Karimov ham alohida e'tibor qaratib quyidagicha mulohaza yuritadilar: "Go'dakning ulg'ayib, kasb tanlashi, kelajakda qanday yo'ldan borishi, o'zining hayot tarzini qanday axloqiy-ma'naviy asoslarga qurishi ham, hech shubhasiz, uning bolalikda qanday o'yinchoqlar bilan oshno bo'lib o'sgani bilan belgilanadi"¹.

Kasbiy faoliyat insonning shaxs sifatidagi kamolotida hal qiluvchi omillardan biri ekan, kasb tanlashni dolzarb ijtimoiy muammo deb tushunish o'rinli bo'ladi. Har qanday murakkab qarorni qabul qilishda bo'lganidek kasbiy tanlovni amalga oshirishda adashmaslik uchun odam tajribali pedagogik-psixologik tayyorgarlik ko'rgan mutaxassislarga muhtoj bo'ladi. Pedagog-psixolog o'qituvchilar, amaliyotchi psixologlarni shu yo'nalishda yoshlarga yordam berishga qodir mutaxassis bo'lib shakllanishida "Kasbga yo'naltirish va kasb tanlash asoslari" faniga oid bilimlarning ahamiyati kattadir.

Kasbga yo'naltirish muammosi ko'plab xorijiy va mahalliy tadqiqotlar doirasida o'rganilib kelinayotganiga qaramay talabalar nazariy va amaliy mashg'ulotlarga tayyorlanishi uchun zarur o'quv adabiyotlari yetarli emas. Mazkur o'quv qo'llanma bu sohadagi kemtiklikni to'ldirishga yo'naltirilgan bo'lib, "Kasbga yo'naltirish va kasb tanlash asoslari" fani namunaviy dasturi asosida tayyorlangan. O'quv qo'llanma shartli ravishda uch guruhga ajratilgan 12 ta mavzuni o'z ichiga oladi. Birinchi guruh mavzularida kasb, kasbiy tanlov va kasbga yo'naltirishning pedagogik-psixologik mohiyati, tizimi, ilmiy-nazariy asoslari yoritiladi. Ikkinchi guruhga kiruvchi mavzularda kasbga yo'naltirish tizimini tashkil etuvchi asosiy faoliyat yo'nalishlari mazmuni va texnologik jihatlari, ilmiy-uslubiy ta'minoti haqida so'z boradi. Uchinchi guruhga kiradigan mavzularda odamning mehnat faoliyati subyekti sifatida rivojlanishi xususiyatlari, bu jarayonda uni psixologik qo'llab-quvvatlash imkoniyatlari bayon etiladi. O'quv qo'llanmaning ilova qismida kasbga yo'naltirish ishining turli sohalarida qo'llanishi mumkin bo'lgan amaliy uslubiy ishlanmalar, psixologik metodikalar va boshqa yordamchi materiallar keltiriladi.

¹ Каримов И.А.Юксак маънавият – енгилмас куч. – Т.: «Маънавият», 2008. – Б.157.

1-mavzu: Kasbga yo‘naltirish va kasb tanlash asoslari faniga kirish

Reja

1. Kasb tanlash va kasbga yo‘naltirish haqida asosiy tushunchalar.
2. Kasbga yo‘naltirish ishining vujudga kelish va rivojlanish tarixi.
3. O‘quvchilarni kasb-hunarga yo‘naltirish tizimi uchun mutaxassis tayyorlash muammosi.
4. Kasbga yo‘naltirish ishining asosiy tamoyillari va axloqiy qoidalari.

Mavzuning o‘quv maqsadi: talabalarni kasbga yo‘naltirish ishining psixologik mohiyatini, kasb tanlashning ijtimoiy ahamiyatini keng ommaga yetkaza olishga tayyorlash.

Darsning vazifasi: talabalar kasb tanlashning inson hayotidagi ahamiyatini yanada chuqurroq anglashiga erishish, ularni kasbga yo‘naltirish sohasida bo‘lg‘usi kasbiy faoliyatda qo‘yiladigan talablar bilan tanishtirish.

Tayanch tushunchalar: kasb, ixtisoslik, malaka, kasbga yo‘naltirish, kasb tanlash, psixologik xizmat.

1. Kasb tanlash va kasbga yo‘naltirish haqida asosiy tushunchalar

Kasbning inson hayotidagi o‘rni naqadar yuksak ekani ko‘pchilikka ayon. Inson o‘z hayotining katta qismini ma‘lum faoliyat turi bilan shug‘ullanib o‘tkazishini e‘tiborga olsak, kasb tanlash hayotiy yo‘lni tanlash bilan barobar ekanini tushunish qiyin emas. Xalqimiz bejizga “Kasb, kasb tubi – nasib”, deb aytmaydi. Ayrim statistik ma‘lumotlarga qaraganda bugungi kunda dunyoda taxminan 40000 ziyod kasb mavjud. Har yili taxminan 25 mln odam faoliyat turini almashtiradi, ulardan 12% yana avvalgi ish joyiga qaytib keladi [52]. Yana ayrim ma‘lumotlarga ko‘ra, yiliga dunyoda 500 tadan yangi kasb paydo bo‘lib borayapti [14, b.36].

Kasblar olamining tobora kengayib borishi, ilmiy-texnikaviy taraqqiyotning jadallashuvi kasb tanlashdek azaliy masalani zamonaviy inson uchun jiddiy muammoga aylantirib qo‘ydi. Har qanday mehnat turi moddiy yoki ma‘naviy boyliklar yaratishga yo‘naltirilgan ekan, davlatning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotini ta‘minlovchi bosh omil sifatida gavdalanadi. Shunday ekan, kasb tanlash nafaqat alohida olingan insonning shaxsiy, balki ijtimoiy ahamiyatga ega muammo darajasida

talqin etilishi o‘rinlidir. Ushbu masalaga davlatimiz konstitutsiyasida ham alohida e‘tibor qaratilib, 37-moddada “Har bir shaxs mehnat qilish, erkin kasb tanlash, adolatli mehnat sharoitlarida ishlash va qonunda ko‘rsatilgan tartibda ishsizlikdan himoyalanih huquqiga egadir” degan qoidaning belgilab qo‘yilgani ham fikrimizni tasdiqlaydi.

Inson kasb sohasidagi tanlovda adashmasligini ta‘minlash, bunda unga amaliy yordam ko‘rsatish zarurati kasbga yo‘naltirish ishining vujudga kelishi uchun zamin hozirladi. Kasbga yo‘naltirish ishining mazmun-mohiyati, bu sohada to‘plangan ilmiy-nazariy ma‘lumotlar va amaliy ishlanmalar bilan tanishtirish, bo‘lg‘usi mutaxassislarini ulardan pedagogik-psixologik faoliyatda foydalanishga tayyorlash maqsadida oliy pedagogik ta‘lim jarayonida “Kasbga yo‘naltirish va kasb tanlash asoslari” fanining o‘qitilishi joriy etilgan.

O‘zbek tilining izohli lug‘atida kasb so‘zi “ish faoliyatning ma‘lum tajriba, tayyorgarlik talab etadigan biror turi, sohasi” ma‘nosida izohlanadi [48, b.328]. Tilshunoslar “kasb” so‘zi arabcha “kasb (un)” shakliga ega ko‘p ma‘noli “kasaba” fe‘lining “o‘z mehnati bilan mablag‘ topdi” ma‘nosidan hosil qilingani haqida ma‘lumot beradilar [36, b.197].

“Kasb” tushunchasini “ixtisoslik”, “malaka” va “lavozim” tushunchalaridan farqlash kerak. Kasb – bu inson o‘z jismoniy va ma‘naviy kuchlari, shuningdek, bilimlari va aqliy qobiliyatlarini ro‘yobga chiqaradigan jamiyat uchun ahamiyatli hamda mehnat taqsimoti tufayli muayyan chegaralar bilan ajratilgan soha [14, b.23-24].

Malaka muayyan mehnat turi uchun tayyorlik darajasi, ixtisoslik muayyan kasb doirasida amalga oshiriladigan mehnat turi, ya‘ni ma‘lum bir kasbiy yo‘nalishda bajariladigan ish-faoliyat, lavozim esa ma‘lum xizmat vazifalarining bajarilishini talab qiluvchi ish o‘rnidir.

Kasbni psixologik tushunish asosida “kasb tanlash” birikmasini quyidagicha talqin etish mumkin: kasb tanlash – insonning o‘z jismoniy va psixik kuchini sarf etib, yashash va rivojlanish uchun qanday kasb sohasini tanlash bo‘yicha qabul qiladigan qaroridir.

Umumiy ravishda, kasbga yo‘naltirish – bu yoshlarni kasblar olami bilan tanishtirish. Bu odamga o‘z individual qobiliyatlari va jamiyat unga taqdim etgan imkoniyatlar asosida kasb tanlashda yordam ko‘rsatishdir. Mutaxassislar kasbga yo‘naltirishga quyidagicha ilmiy ta‘rif beradilar: “Kasbga yo‘naltirish – bu mamlakat iqtisodiyoti, alohida tarmoqlar, iqtisodiy mintaqalar manfaatini hisobga olib, odamni o‘z layoqati, qiziqishlari, shuningdek, ijtimoiy ehtiyojlar, rivojlanish istiqboli hamda mehnat zaxiralarining to‘laqonli taqsimlanishi zarurati

asosida mustaqil ravishda kasb tanlash yoki kasbni almashtirishga tayyorlash tizimidir [30].

Kasbga yo‘naltirish murakkab va ko‘p bo‘g‘inli hodisa bo‘lib, unda iqtisodiy jarayonlar ijtimoiy, ta‘limiy va psixologik jarayonlar bilan uyg‘unlashib ketadi. Shunga muvofiq kasbga yo‘naltirish ishining quyidagi jihatlari ajratiladi:

1. Psixologik-pedagogik jihat. Kasbga yo‘naltirish ishi odamga tarbiyaviy ta‘sir ko‘rsatishni nazarda tutib, uni shaxsiy va ijtimoiy manfaatlar uyg‘unligiga intilish, jamiyat taraqqiyoti uchun o‘zini-o‘zi takomillashtirishga o‘rgatadi.

2. Tibbiy-biologik jihat. Kasbga yo‘naltirish ishi turli kasblar inson salomatligi va jismoniy imkoniyatlariga qo‘yilgan talablarni hisobga olish asosida amalga oshirilib, odamga tegishli yo‘nalishdagi kasbiy faoliyat uning ruhiy va jismoniy holatiga qanday ta‘sir ko‘rsatishi mumkinligini tushuntirishni taqozo etadi.

3. Ijtimoiy-iqtisodiy jihat. Kasbga yo‘naltirish mamlakatning asosiy boyligi bo‘lgan mehnat zaxiralaridan iqtisodiy taraqqiyot uchun unumli foydalanishga yordam beradi, qolaversa, kasb tanlash va keyinchalik mutaxassis sifatida rivojlanish odamning ijtimoiy ahamiyatli bilim, me‘yorlar, malakalarni o‘zlashtirishi bilan uyg‘un kechadi.

Kasbga yo‘naltirishda e‘tiborga olinadigan asosiy holatlarning o‘zaro aloqasi “kasbga yo‘naltirish uchburchagi” da ko‘rsatiladi. Ushbu uchburchakning bir tomoni – turli kasblar insonga qo‘yadigan talablarni yaxshi bilishdan iborat. Ikkinchi tomon – ehtimol tutiladigan mehnat bozorining ehtiyojlari. Uchinchi tomon – kasb tanlovchi odamning shaxs xususiyatlari [29, b.166] .

Kasbga yo‘naltirish fandagi alohida yo‘nalish sifatida taxminan XX asrning boshida vujudga kelgan. Ayrim mutaxassislar bu hodisani amerikalik psixolog psixotexnika yo‘nalishi asoschisi Gugo Myunsterberg tomonidan bu davrda odamning kasbiy qobiliyatlarini tekshirish uchun dastlabki psixologik sinov vositalari ishlab chiqilishi bilan tushuntiradilar [41]. Biroq aksariyat manbalarga ko‘ra, kasbga yo‘naltirish ishining tarixi Frenk Parsons tomonidan Fransiyaning Strasburg shahrida 1903-yilda birinchi kasbga yo‘naltirish kabinetini va AQSH ning Boston shahrida kasb tanlash byurosi tashkil etilishidan boshlanadi [14]. Ammo shubhasiz, kasbga yo‘naltirish ishining vujudga kelishi insoniyat jamiyati uzoq tarixiy taraqqiyot jarayonida to‘plagan tajribasi natijasidir.



2. Kasbga yo‘naltirish ishining vujudga kelish va rivojlanish tarixi

Ayrim kasblarning alohida ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyatini ajratib ko‘rsatish holatlarini uch ming yillik tarixga ega “Avesto” da ham uchratish mumkin. Masalan, dehqonchilik va chorvadorlikning ahamiyatiga asarda bir necha bor yuksak baho beriladi: “Don ekkan kishi, taqvodorlik urug‘ini ekadi, u Mazdaga ixlosmandlik e‘tiqodini olg‘a suradi, u imonni oziqlantirib turadi” [47, b.38]. “Chorvador yaxshi niyat uchun kurashadi, chorvador bo‘lmagan kishi bunday niyatdan yiroqdir” [47, b.41]. “Avesto” da, hatto, odamga bolalikdan boshlab aynan qanday kasb-hunar o‘rgatilishi kerakligi yuzasidan ko‘rsatmalar bor: “Bolalar yosh paytidanoq daraxt ko‘chati o‘tqazish, uy-ro‘zg‘or qurollari yasash, yerga ishlov berish va chorva bilan shug‘ullanishga o‘rgatilishi kerak” [47, b.38].

Buyuk Sharq mutafakkirlari ilmiy merosida ham odamning kasb tanlashi, bunga ta‘sir ko‘rsatuvchi omillar, umuman, inson va kasb o‘rtasidagi munosabat masalasiga alohida e‘tiborni ko‘rish mumkin. Masalan, Ar-Roziy tabiblik kasbini mukammal egallash shartlari haqida mulohaza yuritib, “Nafaqat o‘qishgina, balki o‘qiganni muhokama eta olish, o‘qiganlarini ba‘zi hollarda tatbiq qila olish qobiliyatigina tabibni tabib qiladi”, - deb ta‘kidlaydi [47, b.103]. Muayyan kasb sohasi

vakillari turli malakaga ega bo'lishi mumkinligiga Abu Nasr Forobiy ham alohida urg'u beradi "Bir turdagi san'at, hunar sohiblari ham malaka jihatidan farqlanishi mumkin. Masalan, bir hattot, o'z hunarining ko'pgina sirlarini bilishi, keng bilim egasi bo'lishi mumkin. Boshqa biri o'z hunari sirlarini kamroq bilishi mumkin" [3, b.165-166].

Abu Nasr Forobiy, shuningdek, muayyan kasbni egallaganlik darajasiga ko'ra odamlarda ma'lum sifatlarning rivojlanishida tafovut kelib chiqishiga ishora qiladi: "Bir jinsdagi kasb-hunar va bilimlarning ortiq-kamligiga qarab odamlar ma'lum xislat-fazilat kasb etadilar" [3, b.189]. Sa'diy Sheroziy o'z hikoyatlaridan birida turli kasblar bilan shug'ullanish uchun odamlarda imkoniyat turlicha bo'lishini, inson o'ziga mos kasb sohasini topishi kerakligini purhikmat misralarda ifodalaydi: "Biyobonda quduq qazolmasang boq, Qabristonga kirib, bitta chiroq yoq. Har kim o'z kuchiga yarasha yuk ko'tarar bil, Chigirtka oyog'i chumoliga zil" [38, b.228].

Kasb omilining ahamiyatini allomalar naqadar yuqori baholashini Abu Ali ibn Sino bemorga dori belgilashda uning jinsi, yoshi, kuch-quvvati bilan bir qatorda kasbini ham e'tiborga olishga chaqirishidan ham bilib olish qiyin emas [2, b.124]. Shuningdek, Abu Ali ibn Sino kasbiy faoliyatning inson organizmiga ta'siri masalasiga ham alohida e'tibor qaratib, masalan, ko'p terlash bilan kechadigan og'ir jismoniy mehnat odamning ayrish-chiqarish tizimi faoliyatiga to'sqinlik qilishini ta'kidlaydi [2, b.130].

Yevropada ham o'rta asrlardayoq kasbga yo'naltirish masalasiga mutafakkir-allomalar e'tiborini ko'rish mumkin. Jumladan, 1575-yilda Ispaniyada shifokor Xuan Uartening "Fanlarga bo'lgan qobiliyatni tadqiq etish" kitobi nashr etildi. Mazkur kitobni mutaxassislar kasb tanlashni amalga oshirish uchun individual qobiliyatlarni o'rganish masalasi alohida vazifa sifatida belgilangan ilk asar deb baholaydilar [14]. Uarte asarda kasb tanlashni davlat miqiyosida amalga oshirish g'oyasini ilgari suradi: "Hech kim o'z tabiatiga aynan mos kasb tanlashda adashmasligi uchun hukmdor yuksak aql-zakovat egalari orasidan har kimga o'zining iqtidorini erta bolalikdan aniqlashga va shunga muvofiq sohada bilimlar egallashga majbur qiladigan odamlarni tayinlashi maqsadga muvofiqdir" [40, b.71].

Tarixdan ma'lumki, XX asr boshiga kelib, insoniyat hayotida yuksak texnologik taraqqiyot davri boshlandi. Bu borada ancha tez rivojlangan qator mamlakatlarda ishlab chiqarishning rivojlanishi odamlarning katta guruhlari ish topish maqsadida shaharlarga migratsiya

qilishiga olib keldi. Ishlab chiqarishda ancha murakkab texnika va texnologiyalarning tatbiq etilishi natijasida har kim ham ularni muvaffaqiyat bilan ishlatishga qodir emasligi ko'rinib qoldi. Natijada ishlab chiqaruvchilar oldida mehnat bozorida tegishli ishga yaroqli odamlarni tanlab olish zarurati paydo bo'ldi. Mehnatkashlarning o'zi ham mehnat bozorida kuchayib borayotgan raqobat sharoitida ish joyini saqlab qolish uchun faoliyat sohasini o'z imkoniyatlari va xususiyatlari asosida tanlashi zarur ekanini tushuna boshladi. Shu tariqa XIX asr oxiri va XX asr boshlarida maxsus kasbga yo'naltirish xizmatini tashkil etish ehtiyoji paydo bo'ldi. Bunday xizmatning yo'lga qo'yilishi nafaqat yangi ish joylariga davogar ishchilar, balki bu joylarni taklif etayotgan rahbarlarga foydali bo'lgani sababli, ular buning uchun haq to'lashga ham tayyor edilar [31]. Bu esa kasbga yo'naltirish ishining moliyaviy qo'llab-quvvatlashiga va tez rivojlanishiga olib keldi.

Mamlakatimizda yoshlarni kasb-hunarga yo'naltirish sohasidagi davlat chora-tadbirlari tizimini muvofiqlashtirish uchun "O'quvchilarni kasb-hunarga yo'naltirish va psixologik-pedagogik Respublika tashxis Markazi" tashkil etilgan. Dastlab O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1998-yil 13-maydagi 203-sonli qarori asosida Xalq ta'limi vazirligining 1999-yil 23-iyundagi 108-sonli buyrug'i bilan respublika "Iste'dod" Markazi negizida "Respublika o'quvchilarni kasb-hunarga yo'naltirish va psixologik-pedagogik tashxis Markazi" tashkil qilingan. Xalq ta'limi vazirligining 2001-yil 23-apreldagi 64-sonli "Respublika o'quvchilarni kasb-hunarga yo'naltirish va psixologik-pedagogik tashxis Markazi faoliyatini takomillashtirish va rivojlantirish to'g'risidagi buyrug'i bilan "O'quvchilarni kasb-hunarga yo'naltirish va psixologik-pedagogik Respublika tashxis Markazi" deb qayta nomlandi va uning tuzilmasi tasdiqlandi.

O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligining o'quvchilarni kasb-hunarga yo'naltirish va psixologik-pedagogik Respublika tashxis Markazi O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi tizimidagi o'quvchi-yoshlarning kasb-hunarga yo'naltirish xizmatiga rahbarlik qiluvchi zveno hisoblanadi va O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va qonunlarida ko'zda tutilgan jamiyat ehtiyoji va mehnat bozori talablari asosida ularning o'z qiziqishlari, qobiliyatlari va sog'liqlariga mos bo'lgan kasb-hunarlarni tanlashlariga ko'maklashadi.

Markazning asosiy vazifalari:

– O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligining tashkilot, muassasa va ta'lim muassasalarida kasb-hunarga yo'naltirish va



Bu tanishuv parchasidir. Asarning to'liq versiyasi <https://kitobxon.com/uz/asar/4004> saytida.

Бу танишув парчасидир. Асарнинг тўлиқ версияси <https://kitobxon.com/uz/asar/4004> сайтида.

Это был ознакомительный отрывок. Полную версию можно найти на сайте <https://kitobxon.com/ru/asar/4004>